

**Vazirlik markaziy apparatiga 2025-yilning 9 oyi davomda jismoniy va
yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarning o'rganib chiqilishi haqida
MA'LUMOT**

Vazirlikda, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, ijro monitoringini edo.uz elektron dasturidan foydalangan holda yuritish va nazorat qilish hamda ijro intizomiga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha hisobot davrida olib borilgan ishlar yuzasidan vazirlikning har chorakda o'tkaziladigan hay'at yig'ilishlarida, doimiy o'tkaziladigan vazirlik markaziy apparati yig'ilishlarida, shuningdek, har hafta yakuni bilan vazir, vazir o'rinbosari (ijro intizomi masalalari bo'yicha mas'ul) huzurida muntazam ravishda muhokama qilib borildi.

Ayni paytda vazirlikning 71 202-47-00 raqamli ishonch telefoni 24/7 rejimida ishlab turibdi. Shuningdek, Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi, Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi hamda "Suv xo'jaligida bozor mexanizmlarini joriy qilish" davlat muassasasida ham ishonch telefonlari yo'lga qo'yilgan.

Hisobot davrida vazirlikka Prezident virtual qabulxonasi, PM.GOV.UZ sayti, Vazirlar Mahkamasi, Tadbirkorlar virtual ofisi, Bosh prokuratura virtual qabulxonasi, e-xat, vazirlik ishonch telefoni, pochta xizmatlari, veb-sayt orqali jami 4 059 ta (o'tgan yilning shu davrida 2 564 ta) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati kelib tushdi.

Ushbu murojaatlarning 52 tasi (1,3%) vazirlik tizimidagi tashkilot va muassasalar rahbarlarining faoliyati, 2193 tasi (54%) sug'orish suvi; 372 tasi (9,1%) nasos stansiyalar, 131 tasi (3,2%) kapital qurilish (dasturga kiritish), 122 tasi (3%) suv xo'jaligida inovatsion texnologiyalarni joriy etish (suv tejovchi texnologiyalar, subsidiya ajratish), 149 tasi (3,7%) ijtimoiy (uy-joy, maosh, moddiy yordam, ishga kirish) masalalar, 4 tasi (0,1%) chet el investitsiyalarini jalb qilish, 1036 tasi (25,5%) irrigatsiya va melioratsiya hamda boshqa masalalarga taalluqlidir.

O'rganilgan 4 059 ta murojaatlarning 2 442 tasi (60,4%) qanoatlantirilgan, 1 234 tasi (30,4%) huquqiy tushuntirish berish orqali hal etilgan, 3 tasi (0,07%) qonunchilikda belgilangan tartibda anonim deb topilgan, 22 tasi (0,5%) qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rmasdan qoldirilgan, 305 tasi (7,5%) taalluqliligi bo'yicha tegishli vazirlik va idoralarga yuborilgan, 53 tasi (1,3%) o'rganib chiqish jarayonida bo'lib nazoratga olingan.

Murojaatlar bilan ishlashda 2 ta (0,05%) holatda qonunchilikda belgilangan muddat buzilish aniqlangan va tegishli rahbar-mas'ullarga nisbatan intizomiy choralar ko'rilgan.

Shuningdek, joylarda ijro intizomiga rioya qilmagan 21 nafar hodimga nisbatan intizomiy choralar qo'llanilgan, 16 ta holatda xayfsan va 1 ta holatda jarima belgilangan.

Joriy yil issiq va quruq kelgani sababli suv taqchiligini yumshatish maqsadida Prezident Administratsiyasi rahbari topshirig'iga asosan vazirlikda "Call-markaz" va tezkor Shtab tashkil etilib, ushbu xizmat haqida ijtimoiy tarmoqlar orqali aholiga ma'lumotlar yetkazildi.

Sug'orish mavsumida, ayniqsa, yoz oylarida fuqarolarning suv taqchilligi bo'yicha murojaatlari 24/7 rejimida "Call-markaz" orqali jami 1 039 ta (4 059 ta murojaatdan 25,6%) qabul qilinib, bir kun muddatda o'rganish va amaliy yordam berish choralari ko'rildi.

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi